O‘zbekiston Respublikasida iste’mol narxlari indeksi (INI)

2026-yil oktabr oyi

Ma’lumotlar jadvallariga havolalar:
MIIT – 2018 bo‘limlari bo‘yicha iste’mol narxlari indeksi
O‘zbekiston bo‘yicha barcha tovar va xizmat narxlari indeksi, o‘tgan oyga nisbatan


I. O‘zbekiston bo‘yicha yig‘ma INI
II. Hududlar kesimida yig‘ma INI
III. O‘zbekiston bo‘yicha asosiy guruhlardagi INI
IV. Yig‘ma INI o‘zgarishiga MIIT – 2018 bo‘limlarining ta’sir tuzilmasi
V. Geometrik Yang formulasi bo‘yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)
VI. Uslubiy ma’lumotlar
VII. Foydali havolalar

I. O‘zbekiston bo‘yicha yig‘ma INI

2026-yil oktabr oyida yig‘ma INIning oylik ko‘rsatkichi **100,6 %** (2025-yil oktabr oyida **100,6 %**)ni, o‘tgan yilning dekabriga nisbatan **104,8 %** (2025-yil oktabr oyida **105,7 %**)ni, yillik nisbatda **106,5 %** (2025-yil oktabr oyida **107,8 %**)ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o‘zgarishini hisobga olmaganda, yig‘ma INI oy davomida **100,5 %** (2025-yil oktabr oyida **100,5 %**)ni, 2026-yilning yanvar–oktabr oylarida **106,1 %** (2025-yil yanvar–oktabr oylarida **107,2 %**)ni tashkil etdi. Yillik hisobda esa bu ko‘rsatkich **106,8 %**ga (2025-yil oktabr oyida **108,6 %**) teng bo‘ldi.

O‘zbekiston bo‘yicha INI dinamikasi, o‘sish (pasayish) sur’ati %da



Quyida 2026-yil oktabr oyida MIIT – 2018 bo‘limlari bo‘yicha asosiy tovar va xizmatlar narxlarining o‘zgarishi keltirilgan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo‘limi

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari orasida bir oyda narxlar quyidagi turlar bo‘yicha oshgani qayd etildi: tuxum – **5,2 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+12,7 %**), qo‘y go‘shti – **1,4 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+19,5 %**), suyakli mol go‘shti – **1,2 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+15,6 %**), qiyma – **1,1 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+14,8 %**), suyaksiz mol

go‘shti — **0,9** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+17,1** %), tovuq boldiri va son qismlari — **1,6** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+3,3** %), butun tovuq — **1,2** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+2,1** %), baliq va boshqa dengiz mahsulotlari — **1,4** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+9,0** %), sut o‘rtacha — **1,0** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+5,0** %), oliy navli bug‘doy unidan non — **0,7** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+3,6** %). Oy davomida shakar narxining o‘rtacha **2,2** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan +**0,6** %) pasayishi kuzatildi.

Mavsumiy omil meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bir oy davomida asosiy meva–sabzavot mahsulotlaridan limon — **15,0** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+11,3** %), uzum — **7,5** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **-19,7** %), olma — **3,0** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+4,6** %) va banan narxlari — **1,3** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **-6,9** %) arzonlashdi. Baqlajon — **9,0** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **-31,6** %), bodring — **9,0** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **-21,2** %), pomidor — **8,8** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+4,7** %), bulg‘or qalampiri — **8,7** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+2,5** %) va kartoshka narxlari — **5,3** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **-3,5** %) qimmatlashdi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari bo‘limi

Joriy yilning oktabr oyida asosiy turdagi kommunal xizmatlar orasida Navoiy, Samarqand va Toshkent viloyatlarida sovuq suv ta’minoti va kanalizatsiya tariflarining oshishi qayd etildi. Respublika bo‘yicha o‘rtacha hisobda sovuq suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari oy davomida **4,7** %ga (2025-yil oktabriga nisbatan **+7,7** %) qimmatlashdi. Oy davomida aholi uchun ko‘mirning bozor narxlari **0,3** %ga[1], o‘tin narxi esa **0,5** %ga oshdi.

Transport bo‘limi

Oy davomida benzin uchun o‘rtacha iste’mol narxlari darajasi **1,0** %ga **(**2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+19,5** %**)** oshdi. Bunda, 2026-yil oktabr oyida benzinning AI-92 markasi — **0,5** %ga, AI-95 markasi — **2,6** %ga, AI-98 va AI-100 markalari esa — **5,3** %ga qimmatlashdi. Propanning narxi oy davomida **0,4** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+44,7** %) qimmatlashdi, metan narxida o‘zgarish bo‘lmadi (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+10,0** %).

Ma’lumot uchun: *tasdiqlangan metodologiyaga muvofiq, avtomobillar uchun benzin va gaz yoqilg‘isining o‘rtacha narxlarini hisoblashda soliq organlarining ma’lumotlar bazasidan 1-oktabrdan 25-oktabrgacha bo‘lgan davr uchun olingan ma’lumotlar qo‘llanildi. Benzinning o‘rtacha narxini aniqlashda 858 ta obyekt bo‘yicha 29 245 ta, propan narxini aniqlashda 368 ta obyekt bo‘yicha 8 464 ta, metan narxini aniqlashda esa 570 ta obyekt bo‘yicha 14 284 ta narx kotirovkalaridan foydalanildi. AI-92 benzinining bir litri narxi 10 500 so‘mdan 18 000 so‘mgacha, AI-95 13 500 so‘mdan 21 500 so‘mgacha, AI-98 va AI-100 16 500 so‘mdan 28 000 so‘mgacha bo‘ldi. Propan uchun yuqori narx chegarasi bir litr uchun 10 000 so‘mni tashkil etdi.*

2026-yil oktabr oyida haydovchilarni tayyorlash kurslari, avtomobil boshqarish darslari, avtomobil boshqarish bo‘yicha imtihonlar, haydovchilik guvohnomasini olish bilan bog‘liq xizmatlar narxi **0,8** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan +**7,5** %) qimmatlashdi.

Yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari orasida 2026-yil oktabr oyidan Toshkent shahrida yangi tariflarning joriy etilishi munosabati bilan metropolitenda yo‘l haqi **26,1** %ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+26,1** %) qimmatlashdi. Poytaxt avtobuslarida yo‘l haqi tariflarining oshirilishi respublika bo‘yicha shahar avtobus transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari narxi o‘rtacha **7,1** %ga (shu jumladan, Toshkent shahrida **26,1** %ga) oshishiga hissa

[1] 2026-yil iyun oyida ko‘mir narxlarining davlat tomonidan tartibga solinishi bekor qilinishi munosabati bilan aholi uchun ko‘mir narxlari 2,1 baravar oshgan.

qo‘shdi. Narxlar indeksini hisoblashda yo‘l haqini to‘lashning turli usullari inobatga olindi hamda o‘tgan va joriy oylardagi narxlarning o‘zaro taqqoslanuvchanligi ta’minlandi. Taksida yo‘l haqi o‘rtacha **1,3 %**ga (shu jumladan, Toshkent shahrida **2,5 %**ga) qimmatlashdi.

Yevroga nisbatan so‘mning mustahkamlanishi ta’sirida ichki aviaqatnovlar tariflari **1,4 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **-4,9 %**) pasaydi. Xalqaro yo‘nalishlarda esa valyuta kursi o‘zgarishining tariflarni pasaytiruvchi ta’siriga qaramay, tariflar **0,7 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **-2,5 %**) oshdi, bu holatni yoqilg‘i yig‘imlarining oshishi chiptalar qiymatiga nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatgani bilan izohlash mumkin.

Respublika bo‘yicha shahar atrofidagi poyezdlarda yo‘l haqi o‘rtacha **1,4 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+8,8 %**) qimmatlashdi. Uzoq masofalarga qatnovchi poyezdlar chiptalari narxi esa **0,6 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+12,5 %**) oshdi, bu so‘mning Shveysariya frankiga nisbatan kursining o‘zgarishi hamda tariflarni hisoblashda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarning qayta ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar bo‘limi

Joriy yil oktabr oyidan boshlab nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari xizmatlari uchun to‘lov miqdori o‘rtacha **0,6 %**ga, nodavlat maktablarda **0,5 %**ga va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida **0,1 %**ga oshdi. Davlat muassasalarida mazkur xizmatlar narxlarida o‘zgarish bo‘lmadi. Ta’limning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha oy davomida repetitorlik xizmatlari narxi **1,6 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+6,3 %**), chet tillarini o‘rganish kurslarida ta’lim olish narxi esa **0,8 %**ga (2025-yil oktabr oyiga nisbatan **+5,3 %**) oshdi.

2026-yilning oktabr oyida MIIT – 2018 bo‘limlari bo‘yicha INI, %da

	Bo‘lim nomi	2026-yilning sentabriga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning oktabriga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	101,0	103,8	106,4
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,3	105,6	106,4
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,3	102,2	103,1
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	100,5	110,8	111,8
V.	Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	100,4	102,8	103,2
VI.	Sog‘liqni saqlash	100,1	102,7	103,1
VII.	Transport	100,7	106,5	107,6
VIII.	Axborot va aloqa	100,2	103,0	105,9
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,3	103,1	103,7
X.	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	100,4	105,2	105,6
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,4	106,4	107,4
XII.	Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar	100,2	144,1	144,5
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,4	105,5	106,1

II. Hududlar kesimida yig‘ma INI

Hududlar kesimida qisqa muddatli va yillik INI bo‘yicha o‘rtacha respublika ko‘rsatkichidan keskin farq qayd etilmadi. Qisqa muddatli INI ko‘rsatkichi hududlar bo‘yicha **100,5** %dan **100,9** %gacha, yillik INI esa **105,5** %dan **107,4** %gacha bo‘lgan oraliqda qayd etildi.

2026-yilning oktabr oyida hududlar bo‘yicha INI, %da

Hududlar	2026-yilning sentabriga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning oktabriga nisbatan
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	100,5	104,5	106,0
viloyatlar:			
Andijon	100,6	104,6	106,4
Buxoro	100,5	104,5	105,9
Jizzax	100,5	104,7	106,4
Qashqadaryo	100,6	104,9	106,5
Navoiy	100,7	104,9	106,4
Namangan	100,5	104,6	106,3
Samarqand	100,8	105,2	106,7
Surxondaryo	100,6	104,8	106,2
Sirdaryo	100,6	104,0	105,5
Toshkent	100,7	104,9	106,5
Farg‘ona	100,5	105,1	106,6
Xorazm	100,5	104,8	106,5
Toshkent sh.	100,9	105,3	107,4

III. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy guruhlardagi INI

2026-yilning oktabr oyida tovarlar uchun qisqa muddatli INI **100,6** %ni (2025-yil oktabr oyida **100,7** %), yil boshidan buyon **104,3** %ni (2025-yilning yanvar–oktabrida **103,6** %) va yillik nisbatda **106,1** %ni (2025-yil oktabr oyida **105,8** %) tashkil etdi.


Oziq–ovqat mahsulotlari uchun INI oy davomida **101,0** % (2025-yil oktabr oyida **100,9** %), 2026-yil boshidan buyon **103,9** % (2025-yilning yanvar–oktabrida **103,0** %) va yillik nisbatda **106,4** % (2025-yilning oktabr oyida **105,9** %) darajasida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar uchun INI oy davomida **100,2** % (2025-yil oktabr oyida **100,4** %), yil boshidan **104,9** % (2025-yilning yanvar–oktabrida **104,4** %) va yillik nisbatda **105,6** % (2025-yilning oktabr oyida **105,8** %)ni tashkil etdi.

Xizmatlar bo‘yicha oylik ko‘rsatkich **100,6** % (2025-yil oktabr oyida **100,3** %), yil boshidan **106,3** % (2025-yilning yanvar–oktabrida **112,7** %) va yillik nisbatda **107,3** % (2025-yilning oktabr oyida **114,4** %) ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.


Asosiy guruhlar bo‘yicha INI dinamikasi, o‘sish (pasayish) sur’ati %da

o‘tgan oyga nisbatan




	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
Oziq-ovqat mahsulotlari	0,9	1,0	1,5	0,8	0,9	1,2	1,0	0,0	-1,4	-0,9	0,4	1,0	1,0
Nooziq-ovqat mahsulotlar	0,4	0,5	0,3	0,4	0,2	0,3	0,3	0,3	2,3	0,3	0,2	0,3	0,2
Xizmatlar	0,3	0,3	0,7	0,8	0,6	0,2	0,4	0,4	1,8	0,5	0,1	0,9	0,6
	2025-y.			2026-y.									

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning mos oyiga nisbatan




	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,9	5,9	5,5	5,5	5,9	5,6	5,9	6,7	6,3	6,4	6,2	6,3	6,4
Nooziq-ovqat mahsulotlar	5,8	5,3	5,1	5,2	5,2	5,3	5,2	3,7	5,9	6,0	5,9	5,8	5,6
Xizmatlar	14,4	13,9	13,9	13,5	13,3	12,7	12,0	6,1	7,1	6,6	6,4	7,0	7,3
	2025-y.			2026-y.									

IV. Yig‘ma INI o‘zgarishiga MIIT – 2018 bo‘limlarining ta’sir tuzilmasi

2026-yilning oktabr oyida qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkichning o‘zgarishiga “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” bo‘limidagi narxlarning o‘zgarishi sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘rsatilgan bo‘limda o‘rtacha narxlar darajasining oshishi hisobiga oylik yig‘ma ko‘rsatkich **0,39 f.d.**ga (umumiy o‘sishning **62,9 %**i) yuqori bo‘ldi. “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” va “Transport” bo‘limlaridagi narxlarning o‘zgarishi yig‘ma INIni **0,12 f.d.**ga oshirdi. Qolgan bo‘limlarning ta’siri sezilarli bo‘lmadi (umumiy hisobda **+0,11 f.d.**).

MIIT – 2018 bo‘limlarining 2026-yil oktabr oyida yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d.



2026-yilning yanvar–oktabr oylarida yig‘ma INI o‘sishiga “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar”, “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” hamda "Transport" bo‘limlaridagi narxlar o‘zgarishi eng katta hissa qo‘shdi (umumiy hisobda **+3,36 f.d.** yoki umumiy ta’sirning **69,7 %**i). Boshqa bo‘limlarning jami hissasi **+1,46 f.d.**ni (umumiy ta’sirning **30,3 %**i) tashkil etdi.

V. Geometrik Yang formulasi bo‘yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)

2026-yil yanvar oyidan boshlab Milliy statistika qo‘mitasi geometrik Yang formulasi asosida qo‘shimcha INIni shakllantirib kelmoqda. **Mazkur indeks faqat tahliliy maqsadlarda qo‘llaniladi va yuqorida e’lon qilingan asosiy INIning o‘rnini bosmaydi yoki unga muqobil hisoblanmaydi** (batafsil ma’lumot “Uslubiy ma’lumotlar” VI bo‘limida keltirilgan).

2026-yil oktabr oyida geometrik Yang formulasi bo‘yicha oylik INI **100,7 %**ni, 2025-yil dekabriga nisbatan **103,8 %**ni tashkil etdi.

2026-yil oktabr oyi uchun geometrik Yang formulasi bo‘yicha INI, %da
(TAHLILIY MAQSADLAR UCHUN)

	Bo‘lim nomi	2026-yilning sentabriga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	101,2	102,0
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,3	105,5
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,3	102,2
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	100,5	109,5
V.	Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	100,3	102,8
VI.	Sog‘liqni saqlash	100,1	102,6
VII.	Transport	100,6	106,1
VIII.	Axborot va aloqa	100,2	102,9
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,3	103,0
X.	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	100,4	105,2
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,4	106,4
XII.	Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar	100,3	125,1
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,4	105,4

VI. Uslubiy ma’lumotlar

2026-yilning yanvaridan boshlab Iste’mol narxlari indeksining oylik hisob-kitobi **517** ta tovar va xizmat turiga (2025-yilda – 510 ta) asoslanadi, shundan **419** tasi tovar va **98** tasi xizmatlardir. Kuzatuvda oy davomida **3 mlndan ortiq** narx kotirovkalari qamrab olingan.

INI hisob-kitoblari (1) salmoq vaznlarini shakllantirishga xizmat qiladigan aholi xarajatlarining tuzilmasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvi ma’lumotlari) va (2) iste’mol narxlari o‘zgarishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Nukus shahri, Toshkent shahri, viloyatlar markazlari hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik o‘rnini va iste’mol bozorining tovar va xizmatlar bilan to‘yinganlik darajasini hisobga olgan holda tanlab olingan shahar va tuman markazlaridan to‘planadi.

Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuvi turg‘un savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida ham, ko‘chma savdoda ham (palatka, rastalar va b.) tanlanma asosida o‘tkaziladi.

Hisob-kitoblarda quyidagi manbalardan olingan narx o‘zgarishi haqidagi ma’lumotlar qo‘llaniladi:

(1) CAPI[1] texnologiyasiga asoslangan ma’lumotlar (chakana savdo do‘konlariga tashrif buyurib narxlarni ro‘yxatdan o‘tkazish);

(2) ma’muriy tranzaksion ma’lumotlar (soliq organlari ma’lumotlar bazasidan onlayn-kassa mashinalari chek ma’lumotlari);

(3) eStat[2] tizimi orqali xizmat ko‘rsatuvchi provayderlardan va chakana sotuvchilardan olingan ma’lumotlar (API[3] orqali yoki Excel formatida);

(4) web scraping[4] texnologiyasiga asoslangan va turli xil onlayn manbalar (veb-sayt ma’lumotlari)dan olingan narxlar;

(5) CATI[5] texnologiyasiga asoslangan ma’lumotlar (telefon orqali so‘rovnomalar).

Narxlarni yig‘ish har oyning 1-sanasidan 25-sanasigacha bo‘lgan davrda amalga oshiriladi.

Narxlarni to‘plashning har bir usuli va manbasi uchun alohida grafik belgilangan bo‘lib, u xalqaro standartlar tavsiyalari asosida tayyorlangan va 2026-yil yanvar oyidan joriy etilgan yangilangan metodikada mustahkamlab qo‘yilgan.

XVJ ekspertlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasiga modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasini joriy etish qisqa muddatli istiqbolda tavsiya etilgan.

Tahliliy maqsadlar va respublikadagi inflyatsion jarayonlarni kompleks baholash uchun 2026-yil yanvardan boshlab **geometrik Yang formulasining modifikatsiyalangan variantidan foydalanib, qo‘shimcha narx indeksini shakllantirish boshlandi.** Ushbu hisob-kitoblar natijalari doimo “Tahliliy maqsadlar uchun” degan belgi bilan e’lon qilib boriladi.

! **Modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasi asosida shakllangan INI iste’mol sektoridagi inflyatsiyaning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Geometrik Yang formulasi bo‘yicha hisoblangan INI esa tahlil maqsadlari uchun qo‘shimcha ko‘rsatkich sifatida qo‘llaniladi.**

XVJ mutaxassislari tomonidan o‘rta muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasiga geometrik Yang formulasini joriy etish tavsiya etilgan.

Metodologiyaga kiritilgan va 2026-yil yanvar oyidan kuchga kirgan o‘zgartirishlar “O‘zbekiston Respublikasida narx indekslarini shakllantirish metodologiyasidagi asosiy o‘zgarishlar to‘g‘risida”gi press-relizda batafsil yoritilgan.

VII. Foydali havolalar

Iste’mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom
O‘zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo‘yicha individual iste’mol tasniflagichi (O‘R MIIT – 2018)
Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: konsepsiya va uslubiyat (2020)

Chop etish uchun mas’ul:
Narxlar statistikasi boshqarmasi
Manzil: *100170, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63*
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel: +998 71 203-80-00 (1100, 1101)

[1] CAPI (Computer Assisted Personal Interviewing) – narxlar statistikasida bu ma’lumot to‘plash usuli bo‘lib, unda registratorlar savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlariga bevosita borib, narxlarni qog‘oz anketa o‘rniga planshet orqali qayd etadilar.
[2] O‘zbekistonda statistik hisobotlarni elektron shaklda yig‘ishga mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.
[3] API (Application Programming Interface) – bu turli dasturlar o‘zaro muloqot qilishi va ma’lumot almashishiga imkon beruvchi dasturiy interfeys, qoidalar, buyruqlar va vositalar majmuasidir.
[4] Veb-resurs sahifalaridan ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda ajratib/yig‘ib olish texnologiyasi.
[5] CATI (Computer Assisted Telephone Interviewing) – bu kompyuter yordamida telefon orqali intervyu o‘tkazishga asoslangan ma’lumot to‘plash usuli.